

**EFTALIYLAR TARIXINI O‘RGANISHDA ARXEOLOGIK VA
YOZMA MANBALARNING AHAMIYATI**

Maxmudova Nigoraxon Maxsudjon qizi

AIFU magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada eftaliylar tarixini o‘rganishda arxeologik va yozma manbalarning o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda eftaliylarni arxeologik jihatdan aniq identifikatsiya qilishning murakkabligi, dafn yodgorliklari, istehkomlar, turar-joy majmualari, san’at yodgorliklari, muhrlar, tamg‘alar va ayniqsa numizmatik topilmalarning ilmiy ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, vizantiya, suriya, arman, xitoy, hind, arab-fors va baqtriy tilidagi hujjatlar asosida eftaliylar haqidagi yozma ma’lumotlarning mazmuni, o‘zaro farqi va manbashunoslik xususiyatlari tahlil qilinadi. Maqolada eftaliylar tarixini tiklash birgina etnik yoki siyosiy mezon asosida emas, balki turli hududlar va turli tipdagi manbalarni qiyosiy o‘rganish orqali amalga oshirilishi lozimligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: eftaliylar, arxeologiya, numizmatika, dafn yodgorliklari, tamg‘a, muhr, yozma manbalar, baqtriy hujjatlar, xitoy solnomalari, Markaziy Osiyo.

Аннотация. В данной статье анализируется роль археологических и письменных источников в изучении истории эфталитов. В исследовании освещается сложность их точной археологической идентификации, а также научное значение погребальных памятников, укреплений, жилых комплексов, произведений искусства, печатей, тамг и особенно нумизматических находок. Наряду с этим на основе византийских, сирийских, армянских, китайских, индийских, арабо-персидских и бактрийских документов рассматриваются содержание, различия и источниковедческие особенности письменных сведений об эфталитах. В

статье обосновывается, что реконструкция истории эфталитов должна опираться не на один этнический или политический критерий, а на сравнительное изучение различных типов источников из разных регионов.

Ключевые слова: эфталиты, археология, нумизматика, погребальные памятники, тамга, печать, письменные источники, бактрийские документы, китайские хроники, Центральная Азия.

Abstract. This article analyzes the role of archaeological and written sources in the study of Hephthalite history. It examines the difficulty of identifying the Hephthalites archaeologically with certainty and highlights the scholarly significance of burial monuments, fortifications, residential complexes, works of art, seals, tamghas, and especially numismatic finds. It also discusses the content, differences, and source-critical features of written evidence on the Hephthalites preserved in Byzantine, Syriac, Armenian, Chinese, Indian, Arabic-Persian, and Bactrian sources. The article argues that the reconstruction of Hephthalite history should be based not on a single ethnic or political criterion, but on the comparative study of different categories of sources from various regions.

Keywords: Hephthalites, archaeology, numismatics, burial monuments, tamgha, seal, written sources, Bactrian documents, Chinese chronicles, Central Asia.

Kirish. Eftaliylar tarixini o'rganish Markaziy Osiyo ilk o'rta asrlar tarixshunosligidagi eng murakkab masalalardan biridir. Bu murakkablik, avvalo, ularni arxeologik jihatdan aniq identifikatsiya qilish qiyinligi, yozma manbalarning esa turli tillarda, turli siyosiy muhitlarda va ko'pincha bir-biridan farqli maqsadlarda yaratilgani bilan bog'liqdir. Shu sababli eftaliylar tarixi birgina manba turiga tayanib emas, balki arxeologik topilmalar, numizmatik materiallar, san'at yodgorliklari, muhr va tamg'alar, shuningdek vizantiya,

suriya, arman, xitoy, hind, arab-fors va baqtriy hujjatlarini o‘zaro qiyosiy tahlil qilish asosida tiklanadi.

Eftaliylar bilan bog‘lanadigan arxeologik topilmalar Afg‘oniston, Pokiston, Tojikiston, O‘zbekiston, Turkmaniston va qisman Qozog‘iston hududlarida uchraydi. Biroq ularning aksariyati bevosita “eftaliylar etnik madaniyati”ni emas, ko‘proq “eftaliylar zamonasi”ni aks ettiradi. Shu bois ilmiy adabiyotda alohida bir yodgorlik yoki topilmani mutlaq ravishda eftaliylarga tegishli deb ko‘rsatishdan ko‘ra, turli hududlar materiallarini qiyosiy o‘rganish yo‘li ustun qo‘llanadi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, eftaliylar tarixiga oid arxeologik va yozma manbalarni birgalikda tahlil qilish orqali IV–VI asrlarda Markaziy Osiyo va unga tutash hududlarda yuz bergan siyosiy, etnomadaniy va ijtimoiy jarayonlarni chuqurroq anglash mumkin bo‘ladi. Ayniqsa, dafn marosimlari, san’at namunalaridagi tipajlar, tangalar, ma’muriy muhrlar va huquqiy hujjatlar o‘sha davr siyosiy tuzilmasi, iqtisodiy muomalasi, diniy ramziyati va hukmdorlik legitimatsiyasi haqida qimmatli ma’lumot beradi.

Asosiy qism. Eftaliylar tarixini arxeologik jihatdan tiklashdagi eng asosiy muammo shundaki, hozircha ilm-fanda bevosita va shubhasiz ravishda aynan eftaliylarga tegishli deb ko‘rsatish mumkin bo‘lgan yodgorliklar juda kam. Ko‘pchilik topilmalar bilvosita belgilar — davri, hududiy joylashuvi, tangalar, tang‘alar, antropologik ko‘rsatkichlar, dafn marosimlari yoki san’atdagi ayrim ikonografik unsurlar asosida eftaliylar davri bilan bog‘lanadi [1]. Shu bois eftaliylar arxeologiyasi alohida bir etnik qatlamni emas, balki turli hududlarda eftaliylar hukmronligi davrida shakllangan murakkab siyosiy va madaniy muhitni aks ettiradi.

Arxeologik topilmalar orasida dafn yodgorliklari alohida ahamiyatga ega. Tojikistondagi Baitudasht qo‘rg‘onlari, Beshkent vodiysi, Julsay, Ittifoq, Lyahsh I–II, Xarkush, Kurkat, Termiz “qo‘rg‘on” dafnlari, shuningdek Xorazm va unga tutash hududlardagi Kanga-qal‘a va Kunya-Uaz kabi majmualar ilk

oʻrta asrlarning murakkab etnik tarkibini aks ettiradi [2]. Bu yodgorliklarda katakomba, podboy, lahad, tosh bilan qoplangan qabriston, jamoaviy dafn, qamish toʻshama yoki qamish tobutlarda koʻmish kabi marosimlar uchraydi. Ayrim qabrlarda marhumning ogʻziga yoki boshi atrofiga tanga qoʻyish odati ham qayd etilgan boʻlib, bu ayrim tadqiqotchilar tomonidan yunon dunyosidagi “Xaron oboli” bilan qiyoslanadi [2].

Kurkat qoyatosh sagʻanalari bu jihatdan ayniqsa diqqatga sazovordir. Bu yerda koʻplab bosh suyaklari, koʻpincha sunʻiy deformatsiyaga uchragan kalla qoldiqlari, bronza oynalar, tumorlar, mayda taqinchoqlar va hatto oltin brakteatlar topilgan [3]. Bunday materiallar nafaqat dafn marosimining oʻziga xosligini, balki ijtimoiy tabaqalanish va etnomadaniy aralashuv mavjud boʻlganini ham koʻrsatadi. Dafn yodgorliklari eftaliylar davrida mintaqada turli anʻanalar oʻzaro qorishganini anglashda muhim manba boʻlib xizmat qiladi.

Dafn marosimlaridagi eng muhim belgilaridan biri bosh suyaklarining sunʻiy deformatsiyasidir. Bu holat Dalvarzintepa, Kurkat, Pirmat-bobotepa yaqinidagi qabriston, Termiz, Karnab va boshqa hududlardagi topilmalarda ham qayd etilgan [4]. Tadqiqotchilar bunday belgini koʻpincha xioniy, kidariylar va eftaliylar bilan bogʻliq koʻchmanchi harbiy aristokratiyaning etnik-belgili anʻanasi sifatida talqin qiladilar. Ammo shu bilan birga, bunday antropologik koʻrsatkichlarni toʻgʻridan toʻgʻri etnik mezon sifatida qabul qilish ehtiyotkorlikni talab etadi. Chunki bu anʻana qoʻshni va oʻzaro aloqador boʻlgan bir necha siyosiy guruhlarda ham uchragan boʻlishi mumkin. Shu bois sunʻiy deformatsiya eftaliylarni aniqlashda yordamchi belgi boʻlsa-da, mustaqil va hal qiluvchi mezon emas.

Eftaliylar davri bilan bogʻliq arxeologik qatlamning yana bir muhim yoʻnalishi istehkomlar va turar-joy majmualaridir. Janubiy Turkmaniston, Xorazm, Baqtriya va Sugʻd hududlarida V–VI asrlarga oid koʻplab qalʼa va qishloq-tipidagi manzilgohlar maʼlum. Tolstov Barak-tamni xioniy-eftaliy doirasidagi hukmdor qatlam bilan bogʻlagan boʻlsa, Yakka-Parson singari

Xorazm qal'alari mahalliy zodagon qarorgohlari va istehkomli xo'jalik markazlari sifatida e'tiborni tortadi [5]. Dehistondagi qo'rg'onli ferma-tipidagi manzilgohlar esa o'troq va yarim ko'chmanchi aholi birga yashagan hududiy modelni ko'rsatadi [6]. Geokjik-tepa singari devor bilan o'ralgan komplekslar xavf tug'ilganda odamlar, chorva va ehtimoliy yurtlarni joylashtirish imkoniga ega bo'lgan. Bu kabi yodgorliklar ko'chmanchi va o'troq hayot tarzi unsurlari o'rtasidagi sintezni ifodalaydi.

Sug'd va Janubiy So'g'd hududlarida Yerqo'rg'on, Sho'rtepa va boshqa ayrim manzilgohlar alohida ahamiyatga ega. Kabanov Yerqo'rg'onni kidariylar qarorgohi sifatida talqin qilgan, Sho'rtepaning ustki qatlamlarini esa eftaliylar hukmronligi ostida qolgan kidariylar bilan bog'lashga uringan [7]. Bu yerdagi qo'lda ishlangan qo'pol kulolchilik buyumlari, qo'chqor boshli tutqichli idishlar va tangalar bilan bog'liq qatlamlar yangi aholi guruhlarining kirib kelishini ko'rsatadi. Janubiy So'g'dda IV–V asrlarda qo'lda ishlangan kulolchilikning keskin ortishi ham ko'pchilik tadqiqotchilar tomonidan ko'chmanchi yoki yarim ko'chmanchi guruhlar kirib kelishi bilan bog'lanadi [8].

Bandiyon yodgorligi eftaliylar davri bilan bog'liq eng qiziqarli obidalardan biri hisoblanadi. Shimoliy Xurosondagi ushbu yodgorlikda ustunli zal, bo'rtma ganch bezaklar va pahlaviy yozuvlar topilgan [9]. Dastlab u olov ibodatxonasi deb talqin qilingan bo'lsa, keyinchalik ayrim tadqiqotchilar uni hashamatli qarorgoh yoki harbiy-ma'muriy markaz sifatida baholaganlar. Bu yerda sosoniylar va eftaliylar o'rtasidagi qarama-qarshilik yoki g'alaba motivlari aks etgan bo'lishi mumkinligi taxmin qilinadi. Shu sababli Bandiyon yodgorligi siyosiy voqealarning badiiy aks-sadosi sifatida alohida ilmiy qimmatga ega.

Numizmatik topilmalar eftaliylar arxeologiyasining eng muhim qatlamlaridan biridir. Dalvarzintepa, Xayrabodtepa, Shurob-qo'rg'on, Kofirqal'a, Gardez, Kashmir Smast, Taxila, Ranigat, Tope Kelan, Tepa-i

Marenjan va boshqa ko‘plab joylardan kidariy, alxon, nezak va eftaliy tangalari topilgan [10]. Ularning bir qismi sosoniy podshoh Pero‘z tangalariga taqlidan zarb etilgan bo‘lsa, boshqalari mahalliy ikonografik xususiyatlarni saqlab qolgan. Masalan, Dalvarzintepa va Shurob-qo‘rg‘ondan topilgan eftaliy tangalari, Xayrabodtepadan olingan Pero‘z imitatsiysi yoki Kofirqal‘adagi kumush eftaliy tangasi ushbu hududlarda eftaliylar siyosiy ta‘siri va iqtisodiy muomalasi mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi [10].

Muhrlar, tamg‘alar va bullalar eftaliylar siyosiy elitasi va ma‘muriy amaliyoti haqida ham muhim ma‘lumot beradi. Peshovar, Britaniya muzeyi, Ermitaj, Kofirqal‘a va Kashmir Smast hududlaridan topilgan muhrlarda uzun yuzli, katta ko‘zli, to‘g‘ri burunli, ko‘pincha mo‘ylovli erkaklar tasviri hamda baqtriy yoki brahmiy yozuvlar uchraydi [12]. Ba‘zi muhrlar Xingila, Bando, Eshkingil kabi hukmdor yoki yuqori tabaqa vakillari bilan bog‘lanadi. Kofirqal‘adan topilgan 400 dan ortiq muhr bosmalari orasida “hunn tipidagi” portret tasvirlarining ajralib turishi eftaliylar doirasidagi ma‘muriy tizimning shakllanganidan dalolat beradi. Tamg‘alar masalasida esa Dalvarzintepa, Kobodiyon, Marv va tangalar materiallari ayniqsa muhim bo‘lsa-da, ularni xioniy-eftaliy doirasi bilan bog‘lash masalasida tadqiqotchilar o‘rtasida yakdillik yo‘q [13].

San‘at yodgorliklari orasida devoriy rasmlar, terrakotalar, metall kosalar va haykalchalar alohida o‘rin tutadi. Tadqiqotchilar V–VI asrlarni Markaziy Osiyo san‘atining “eftaliylar bosqichi” deb ataydilar. Biroq bu atama ko‘proq siyosiy davrni anglatadi, ya‘ni san‘atning o‘zi ko‘p hollarda mahalliy Sug‘d, Toxariston, Gandhara va Xuroson an‘analarining eftaliylar hukmronligi davridagi taraqqiy etgan shakli sifatida namoyon bo‘ladi [14]. Bolaliktepa, Afrosiyob, Panjikent, Dilberjin, Ajinatepa, Kofirqal‘a, Kal‘ai Kofirnigan va Bamiyon devoriy rasmlarida mahalliy saroy marosimlari, ziyofat, elchilik va diniy syujetlar bilan bir qatorda eftaliy davriga xos kiyim, bosh kiyim va portret tipajlari ham ko‘zga tashlanadi [15]. Masalan, tor bosh, V-simon qosh, ilg‘ak

burun va og‘ir jag‘ singari belgilar ayrim olimlar tomonidan eftaliy aristokratiyasining badiiy aks-sadosi sifatida talqin qilingan.

Metall torevtikasi orasida Chilek kosasi, Swat kosasi va “Stroganov” kosasi alohida e‘tiborga loyiq. Chilekdan topilgan kumush kosa markazidagi soqolsiz erkak portreti, qanotli daholar va arkalar ostidagi ayol siymolari bilan eftaliy davri saroy san‘atining nozik namunasi sifatida baholanadi [16]. Swat kosasidagi ov sahnalari va turli bosh kiyimli chavandozlar, shuningdek “Stroganov” kosasidagi sharqona kiyimdagi juft obrazlar ham eftaliylar yoki ular bilan bog‘liq zodagon muhitining aks etishi sifatida ko‘riladi. Kashmir Smastdan topilgan bronza kosa ham shu davrning qirollik timsollariga yaqin tasvirlari bilan diqqatga sazovordir [17].

Terrakota va haykalchalar ham eftaliylar davri ikonografiyasini tushunishda muhimdir. Chag‘aniyon hududidan topilgan uch yarim oyli tojli terrakotalar, Dalvarzintepa, Budrach, Hisor vodiysi va Marv materiallari, shuningdek Gardezdagi Ganesha haykali yoki Khair Khanedagi Surya tasvirlari diniy va saroy san‘ati o‘rtasidagi madaniy almashinuvni yaqqol aks ettiradi [18]. Bu yerda hind, sosoniy va mahalliy Toxariston unsurlari qorishib ketgan bo‘lib, eftaliylar faqat zabt etuvchi kuch emas, balki san‘at an‘analarining tarqalishida vositachilik qilgan siyosiy omil bo‘lganini ko‘rsatadi.

Kulolchilik materiallari ham davrning etnomadaniy manzarasini yoritishda muhim ahamiyatga ega. Janubiy So‘g‘d, Toxariston, Vaxsh vodiysi, Farg‘ona, Marv, Dehiston va Xorazm hududlarida IV–VI asrlarda qo‘lda ishlangan, qo‘pol pishirilgan, ba‘zan qizil yoki kulrang, ba‘zan engob va shtamplangan naqshli sopollar keng tarqaladi [19]. Ayrim tadqiqotchilar bunday sopollarni xioniy-eftaliy ko‘chmanchi qatlamlar kirib kelishi bilan bog‘laydilar. Xorazmda Afrig‘iylar davri kulolchiligining shakllanishida ham xioniy-eftaliy unsurlar rol o‘ynagan, degan qarashlar mavjud [19]. Sopol

kompleksi ham bu davrda shimoliy ko‘chmanchi dunyo bilan janubiy o‘troq madaniyat o‘rtasidagi aloqa kuchayganini ko‘rsatadi.

Eftaliylar tarixini tiklashda numizmatik materiallar alohida o‘rin egallaydi. Hatto ko‘plab tadqiqotchilar eftaliylar haqidagi eng muhim va eng aniq etnik belgilanishga ega manba aynan tangalar ekanini ta’kidlaydilar [20]. Buning sababi shundaki, yozma manbalar ko‘pincha parcha-parcha, bir-biriga zid va noaniq bo‘lsa, tangalar hukmdor nomlari, unvonlar, siyosiy ramzlar, diniy timsollar, zarbxona hududlari va iqtisodiy aloqalar haqida nisbatan aniq ma’lumot beradi. Eftaliylar Markaziy Osiyodagi Ipak yo‘lining muhim qismini nazorat qilgan siyosiy kuch sifatida xalqaro savdo tizimida faol ishtirok etgan va bu pul muomalasining kengayishiga olib kelgan [20].

Eftaliylar tangalarining muhim jihati shundaki, ular yagona va markazlashgan pul tizimini shakllantirmagan. Buning sababi eftaliylar davlati tarkibiga kirgan hududlarning tarixiy-numizmatik an’analarini turlicha bo‘lganidir. Shu bois eftaliylar davrida bir tomondan eftaliy hukmdorlarining o‘z nomi va ramzlari tushirilgan tangalar zarb etilgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan ayrim viloyatlar eski kushon, sasoniy, sug‘diy yoki xitoy tipidagi tangalarni muomalada saqlab qolgan [21; 22]. Umuman olganda, eftaliylar tangalarida uch asosiy yozuv tizimi uchraydi: Baqtriya hududida baqtriy yozuvi, Kobul vodiysida pahlaviy yozuvi, Shimoliy Pokiston va Gandhara hududida esa brahmiy yozuvi qo‘llanilgan [21]. Bu hol eftaliylar hukmronligining ko‘p hududli va ko‘p madaniyatli tabiatini yaqqol namoyon etadi.

Mahalliy numizmatik an’analar ham eftaliylar davrida yashab qolgan. Chag‘aniyonda Pero‘z va Xusrav I tangalariga taqlid qilingan “Termiz tipidagi” tangalar, Sug‘dda markazida kvadrat teshigi bo‘lgan xitoycha uslubdagi tangalar, Buxoro hududida esa sug‘diy yozuvli “Buxorxudot tangalari” muomalada bo‘lgan [23]. Bu tangalarda podshoh portreti, olov mehrobi va qo‘riqchilar tasviri saqlangan bo‘lsa-da, yozuv va ayrim ramzlar

mahalliylashgan. Shu jihatdan eftaliylar hukmronligi pul tizimining to‘liq bir xillashuviga emas, balki turli viloyat an‘analarining umumiy siyosiy makon doirasida birga yashashiga olib kelgan.

Markaziy Osiyo ilk o‘rta asr numizmatikasini ilmiy tasniflashda R. Göblning o‘rni alohidadir. Uning “Dokumente zur Geschichte der iranischen Hunnen in Baktrien und Indien” asari ushbu sohadagi asosiy fundamental tadqiqot hisoblanadi [25]. Göbl tangalar asosida “eroniy hunnlar” deb ataluvchi to‘rt asosiy guruhni ajratgan: kidariylar, alxonlar, nezaklar va haqiqiy eftaliylar. Uning tasnifi ilgari eftaliylar bilan bog‘lab kelingan ayrim yozuv va guruhlarni qayta ko‘rib chiqib, xioniylar va eftaliylarni numizmatik asosda aynanlashtirishga tanqidiy yondashgan.

Göbl tasnifiga ko‘ra, kidariylar taxminan IV asr 80-yillaridan V asr o‘rtalarigacha Kobul, Kapisa, Gandhara va Panjob hududlarida zarb faoliyatini olib borgan [26; 27]. Ular o‘z tangalarida “Kushonshoh” unvonini qo‘llab, o‘zlarini kushon-sosoniylar hukmdorlarning vorislari sifatida ko‘rsatishga uringanlar [28]. Alxonlar esa tangalardagi alxono yoki alxanno yozuvlari orqali ma‘lum bo‘lib, Kapisa-Kobul hududidan Gandhara va Shimoliy Hindiston tomonga kengaygan siyosiy kuch sifatida namoyon bo‘ladi [29; 30; 31]. Ularning tangalarida Xingila, Toramana, Mihirakula va boshqa hukmdorlar nomlari uchraydi; ayrim mis tangalarda Nandi buqasi, Lakshmi tasviri va brahmiy yozuvlar kuzatiladi [32].

Nezak shohlar tangalarida esa hukmdor tojidagi buqa boshi shakli eng muhim farqlovchi belgi hisoblanadi. Ular asosan Kobul, G‘azna va Zobul hududlari bilan bog‘lanadi [33]. Keyingi tadqiqotlarda nezaklarning hunn emas, ehtimol mahalliy Kobul–Kapisa hukmdorlari bo‘lgani haqidagi qarashlar kuchaygan bo‘lsa-da, ularning alxonlar bilan siyosiy va ikonografik aloqasi inkor etilmaydi [34]. “Haqiqiy eftaliylar” tangalari esa asosan Sharqiy Xuroson va Toxariston bilan bog‘lanib, Pero‘z draxmalariga asoslangan kumush zarblari bilan ajralib turadi [35]. Em. 287 singari tangalarda baqtriy ēb yoki ēbo

yozuvlari uchraydi va ular ayrim tadqiqotchilar tomonidan “eftaliy” so‘zining qisqartmasi sifatida talqin qilinadi [36]. Balx zarbxonasiga ishora qiluvchi baxlo yozuvining mavjudligi esa bu tangalarning Hindukushning shimolida zarb etilganini ko‘rsatadi [37].

Yozma manbalar eftaliylar tarixini tiklashda arxeologik materiallar qatori nihoyatda muhimdir. Ammo bu manbalar mazmuni, kelib chiqishi va maqsadiga ko‘ra juda xilma-xildir. Vizantiya mualliflari eftaliylar haqida tashqi kuzatuvga asoslangan bo‘lsa-da, qimmatli ma’lumotlar qoldirganlar. Prokopiyy Kesariyskiy eftaliylarni hunnlar bilan bog‘laydi, lekin ularni boshqa hunn guruhlaridan ancha farqli deb tasvirlaydi. Uning yozishicha, eftaliylar ko‘chmanchi emas, nisbatan o‘troq, “yaxshi yurt”da yashovchi, bir podsho boshqaruvida bo‘lgan va “qonuniy tuzum”ga ega xalq edi [38]. Bu tavsif eftaliylarni oddiy harbiy uyushma emas, ma’lum darajada siyosiy va huquqiy institutlashgan davlat sifatida ko‘rsatadi. Agafiy Mirineyskiy ularni umumiy tarzda “hunn xalqi” deb ataydi [39], Theophan Vizantiyalik esa eftaliylar nomining bir hukmdor — Eftalon yoki Vaxshunvar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkinligini qayd etadi [40]. Theophylakt Simokatta esa Abdellar va eftaliylarni bir-biriga yaqin holda tilga oladi [41].

Suriya manbalari, ayniqsa Sosoniylar va eftaliylar o‘rtasidagi siyosiy-harbiy munosabatlarni yoritishda muhimdir. Zakariy Ritorning xronikasida Abdellar va eftaliylarning alohida tilga olinishi tarixiy terminologiyaning murakkabligini ko‘rsatadi [42]. Keyingi suriyalik mualliflarda ham eftaliylar Thedal yoki shunga yaqin shakllarda qayd etiladi. Bu esa eftaliylarning G‘arbiy Osiyo tarixiy xotirasida alohida siyosiy kuch sifatida mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi.

Eftaliylar haqidagi eng boy va tizimli ma’lumotlar xitoy manbalarida saqlangan. Ularning nomi xitoy solnomalarida ilk bor 456-yilda, Shimoliy Vey saroyiga elchi yuborilgan paytda qayd etiladi [43]. Xitoy tarixchilari eftaliylarning kelib chiqishi haqida turli versiyalarni ilgari surganlar: ularni

Gaoju, Pa-hua, Buyuk Yuezhi yoki Kangju bilan bog‘lashga uringanlar [44]. VII asr muallifi Vey Jie esa uzoq mamlakatlar va begona tillarga oid ma‘lumotlar ko‘pincha buzilish va noto‘g‘ri tushunishlarga uchrashi sababli eftaliylarning asl kelib chiqishi haqida qat‘iy xulosa chiqarish mushkul ekanini tan olgan [44]. Bu esa xitoy tarixnavisligining manbashunoslik jihatdan nisbatan ehtiyotkor yondashuvini ko‘rsatadi.

“Beishi”, “Suishu”, “Tangshu”, “Liangshu”, “Zhoushu”, “Weishu”, “Tongdian” va “Tang Huiyao” kabi xitoy solnomalarida eftaliylar Yeda, Yida, I-ta, Hua kabi nomlar bilan tilga olinadi [45]. Bu manbalarda ularning poytaxti, elchiliklari, qo‘shni davlatlarga hukmronligi, podsho qarorgohi, harbiy qudrati va ayrim urf-odatlar haqida muhim ma‘lumotlar beriladi. Masalan, ayrim solnomalarda eftaliylar yarim ko‘chmanchi hayot tarziga ega, suv va yaylov izlab ko‘chib yuruvchi, lekin shu bilan birga katta ibodatxonalar va stupalarga ega siyosiy tuzilma sifatida tasvirlanadi [46]. Bu hol eftaliylar davlatining sof ko‘chmanchi emas, balki o‘troq va ko‘chmanchi unsurlar uyg‘unligidan iborat murakkab tizim bo‘lganini ko‘rsatadi. Song Yun va Xuanzangning sayohat xotiralari ham bu murakkab tuzilmani tushunishda muhimdir [46].

Arman manbalari eftaliylar tarixini, ayniqsa Sosoniylar bilan urushlar nuqtai nazaridan yoritadi. Favstos Buzand, Yegishe, Lazar Parpetsi, Movses Xorenatsi, Ananiya Shirakatsi va Sebeos asarlarida sharqiy yurishlar va eftaliylar bilan to‘qnashuvlar aks etgan. Biroq arman mualliflari ko‘pincha kushonlar va eftaliylarni qat‘iy farqlamaydi, shu sababli ularning ma‘lumotlaridan foydalanishda ehtiyotkorlik zarur.

Hind manbalari eftaliylarni Hūna nomi ostida eslatadi. Eron, Kura, Gvalior, Mandsaur, Kahaum, Junagadh va Bhitari yozuvlari, ayniqsa Toramana va Mihirakula faoliyatini yoritishda muhimdir [47]. Masalan, Erondagi yozuv Toramanani Markaziy Hindistonning Malva hududida hukmronlik qilgan hukmdor sifatida ko‘rsatadi. Gvalior yozuvida esa Mihirakula va uning otasi

Toramana nomlari zikr etiladi. Bu epigrafik materiallar eftaliylar siyosiy ekspansiyasining Hindiston yo‘nalishini aniqroq tiklash imkonini beradi.

Arab-fors tarixiy adabiyoti eftaliylar, ayniqsa ularning Sosoniylar bilan urushlari haqida kechroq, ammo muhim xabarlarini saqlagan. Dinavariy, Tabariy, Bal’amiy, Ibn al-Faqih, Beruniy, Firdavsiy, Mirxond va boshqa mualliflar asarlarida Pero‘zning eftaliylar bilan kurashi, uning mag‘lubiyati va oqibatlari haqidagi rivoyatlar mavjud. Jumladan, “Forsnoma”da Xusrav I Anushirvon saroyidagi ramziy uch taxt haqida ma’lumot berilishi va ulardan biri eftaliylar podshosi uchun ajratilgani eftaliylarning VI asr geosiyosiy tizimidagi nufuzini ko‘rsatadi [48].

Baqriy tilidagi hujjatlar esa eftaliylar tarixini o‘rganishda eng yangi va eng qimmatli manbalar sirasiga kiradi. “Rob hukmdori arxivi” deb yuritiladigan bu hujjatlar Shimoliy Afg‘oniston hududidan topilgan bo‘lib, ularda eftaliylar haqida huquqiy hujjatlar va xatlar mavjud [49]. Bu manbalarda yer oldi-sotdisi, ijara, soliq va ma’muriy munosabatlar aks etgan bo‘lib, eftaliylar boshqaruvining amaliy tomonlarini ochib beradi. Ayniqsa, “Heftal yabg‘usi”, “Rob hukmdori”, “eftaliy hukmdorlar kotibi”, “Toxariston va G‘archiston qozisi” kabi unvonlarning bir joyda uchrashi eftaliylar davlat boshqaruvi va ma’muriy apparatining rivojlanganini ko‘rsatadi.

So‘nggi yillarda aniqlangan yana bir muhim manba — Schøyen kolleksiyasidagi mis rulon yozuvidir. Sanskrit tilidagi bu bitik buddaviy stupaning qurilishi va bag‘ishlanishi munosabati bilan yozilgan bo‘lib, unda ilgari asosan tangalar orqali ma’lum bo‘lgan Xingila, Toramana, Mehama va Javukha kabi hukmdorlar bir davr kontekstida tilga olinadi [50]. Bu topilma ilgari ketma-ket hukmronlik qilgan deb qaralgan ayrim shaxslarning aslida bir vaqtda, lekin turli hududlarda hukmronlik qilgan bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Bu manba ilk o‘rta asr Markaziy Osiyo siyosiy tarixini qayta ko‘rib chiqishga undovchi muhim dalillardan biridir.

Xulosa. Eftaliylar tarixini o‘rganishda arxeologik va yozma manbalar bir-birini to‘ldiruvchi asosiy ilmiy tayanchlardir. Arxeologik materiallar, xususan dafn yodgorliklari, bosh suyaklarining sun‘iy deformatsiyasi, istehkomlar, turar-joy majmualari, kulolchilik, san‘at yodgorliklari, muhrlar va tamg‘alar eftaliylar davrining murakkab etnomadaniy manzarasini yoritadi. Biroq ular ko‘pincha bevosita “eftaliy etnik madaniyati”ni emas, balki eftaliylar hukmronligi davrida shakllangan siyosiy va madaniy muhitni aks ettiradi.

Numizmatik materiallar eftaliylar tarixini tiklashda ayniqsa muhim o‘rin egallaydi. Tangalar hukmdor nomlari, unvonlar, diniy timsollar, zarbxona hududlari va siyosiy legitimatsiya jarayonlari haqida nisbatan aniq ma‘lumot beradi. Kidariylar, alxonlar, nezaklar va haqiqiy eftaliylar tangalari o‘rtasidagi farqlar Markaziy Osiyo ilk o‘rta asrlar tarixida siyosiy kuchlar almashinuvi va hududiy vorislikni tushunishda asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Shu jihatdan numizmatika eftaliylar masalasida eng ishonchli va ilmiy jihatdan samarali yo‘nalishlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Yozma manbalar esa eftaliylarning turli xalqlar tarixiy xotirasida qanday aks etganini ko‘rsatadi. Vizantiya, suriya, arman, xitoy, hind, arab-fors va baqtriy hujjatlar eftaliylar haqida turli darajadagi ma‘lumotlarni saqlagan. Ularning ayrimlari eftaliylarni hunnlar bilan bog‘lasa, boshqalari ularni alohida siyosiy va madaniy birlik sifatida tasvirlaydi. Xitoy manbalari ularning davlat tuzilmasi, elchiliklari va turmush tarzi haqida eng batafsil ma‘lumotlarni bergan bo‘lsa, baqtriy hujjatlar eftaliylar ma‘muriy tizimining amaliy ko‘rinishini ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Cribb J. Coins of the Kidarites and Nephthalites. – 2002. – P. 73, 75, 80; Альбаум Л. И. Живопись Афрасиаба. – Т., 1975. – С. 3; Беленицкий А. М. Монументальное искусство Пенджикента. – М., 1971. – С. 36–37.

2. Соловьев В. С. Северный Тохаристан в раннем средневековье. – Душанбе, 1987. – С. 157–162; Якубов Ю. Раннесредневековые погребения Ляхша. – Душанбе, 1983. – С. 56, 86–87; Мирбабаев А. К. Склепы Курката. – Душанбе, 1980. – С. 295–302.
3. Мирбабаев А. К. Склепы Курката. – Душанбе, 1980. – С. 299–302.
4. Пугаченкова Г. А., Ртвеладзе Э. В. Дальверзинтепе – кушанский и раннесредневековый город. – Т., 1978. – С. 22–23, 125; Мустафакулов С. Антропологические материалы Старого Термеза. – Т., 2002. – С. 303–304.
5. Толстов С. П. По следам древнехорезмийской цивилизации. – М., 1962. – С. 239; Мамедов М., Мурадов О. Архитектура древнего Хорезма. – Ашхабад, 1998. – С. 16.
6. Lecomte O. Dehistan in Late Antiquity. – 2007. – P. 308–309.
7. Кабанов С. К. Еркурган. – Т., 1977. – С. 24, 125–127; Кабанов С. К. О кидаритах в Южном Согде. – Т., 1963. – С. 226–229.
8. Исамиддинов М., Сулейманов Р. Южный Согд в раннем средневековье. – Т., 1984. – С. 126–127, 151–152; Сулейманов Р. Древний Нахшаб. – Т., 2000. – С. 181–188.
9. Rahbar M. Bandian and the Hephthalites. – 2004. – P. 7–21; Gignoux P. Les inscriptions pehlevies de Bandian. – 2008. – P. 163–174.
10. Пугаченкова Г. А., Ртвеладзе Э. В. Дальверзинтепе. – Т., 1978. – С. 22–23; Болелов С. Б. Шуроб-Курган. – Т., 2001. – С. 70–71; Errington E., Curtis V. S. From Persepolis to the Punjab. – London, 2007. – P. 93–98, 133.
11. Grenet F. Regional Interaction in Central Asia. – Oxford, 2002. – P. 206–207.
12. Callieri P. Seals and Sealings from the Hephthalite World. – 1999. – P. 282–285; Callieri P. A Seal of Khingila. – 2002. – P. 121–123, 131; Cazzoli S., Cereti C. Kafir Kala Sealings. – 2005. – P. 143, 159.

13. Ильясов Дж. Тамги хионитов и эфталитов. – Т., 2003. – С. 140–153; Яценко С. А. Критика интерпретации хионитских тамг. – М., 2001. – С. 99.
14. Альбаум Л. И. Живопись Афрасиаба. – Т., 1975. – С. 19, 93, 95; Пугаченкова Г. А., Ремпель Л. И. Искусство Средней Азии. – М., 1982. – С. 223.
15. Беленицкий А. М. Монументальное искусство Пенджикента. – М., 1971. – С. 36–37; Grenet F. Regional Interaction in Central Asia. – Oxford, 2002. – P. 218–219.
16. Маршак Б. И., Крикис Г. А. Чилекская чаша и ее круг. – М., 1969. – С. 67–80; Grenet F. Regional Interaction in Central Asia. – Oxford, 2002. – P. 211–212; Callieri P. Nephthalite Art. – 2002. – P. 126–127.
17. Nasim Khan M. Kashmir Smast. – Peshawar, 2006. – P. 76–85.
18. Ильясов Дж. Эфталитские терракоты Чаганиана. – Т., 1997. – С. 30–32; Stadtner D. The Art of Early Afghanistan. – New York, 2000. – P. 37–42; Callieri P. The Musician Plaque from Merv. – 1996. – P. 391, 397.
19. Неразик Е. Е. Керамика Хорезма раннего средневековья. – М., 1959. – С. 258–260; Толстов С. П. По следам древнехорезмийской цивилизации. – М., 1962. – С. 236; Массон В. М. Древний Дехистан. – Ашхабад, 1961. – С. 39; Пилипко В. Н. Кочевые племена в Амударьинском бассейне. – Ашхабад, 1985. – С. 115.
20. Ртвеладзе Э. В. Монеты и денежное обращение Средней Азии раннего средневековья. – Т., 2002. – С. 21; Массон В. М. Древняя Средняя Азия и ее монетное обращение. – Л., 1974. – С. 154.
21. Mitchiner M. The Coinage and History of Southern Asia. – London, 1975. – P. 167.
22. Ртвеладзе Э. В. Монеты и денежное обращение Средней Азии раннего средневековья. – Т., 2002. – С. 21.

23. Мусакаева А. Монетное обращение Согда в раннем средневековье. – Т., 1994. – С. 46–47.
24. Соловьев В. С. Северный Тохаристан в раннем средневековье. – Душанбе, 1997. – С. 160.
25. Göbl R. Dokumente zur Geschichte der iranischen Hunnen in Baktrien und Indien. Bd. I–II. – Wiesbaden, 1967. – S. 24–26, 54–72.
26. Alram M. Ein Schatzfund von Tepe Maranjan. – Wien, 2004. – P. 572.
27. Cribb J. Kidarite Coinage and Political Legitimacy. – 1990. – P. 181.
28. Vondrovec K. Coinage of the Alkhans and the Copper Scroll Evidence. – forthcoming. – P. 27–32.
29. Alram M. The Early Alchon Huns. – 1999/2000. – P. 131–132.
30. Banerji R. D. The Huna Coins of India. – Calcutta, 1962. – P. 60.
31. Göbl R. Dokumente... Bd. II. – Wiesbaden, 1967. – S. 71–89.
32. Alram M. The Nezak Shahs Reconsidered. – 2004. – P. 573; Vondrovec K. Numismatic Remarks on the Nezaks. – Wien, 2008. – P. 276.
33. Zeimal E. Monetary Circulation in Tokharistan. – 1994. – P. 253.
34. Humbach H. On the Reading of the Hephthalite Legends. – 1996. – P. 209–212.
35. Пугаченкова Г. А., Ртвеладзе Э. В. Дальверзинтепе. – Т., 1978. – С. 22–23; Альбаум Л. И. Зар-тепе и Хайрабадтепа. – Т., 1960. – С. 45–47, 57; Ртвеладзе Э. В. Будрач и его находки. – Т., 1987. – С. 120–122.
36. Кабанов С. К. Монеты Нахшеба. – Т., 1961. – С. 137–144; Массон М. Е. К вопросу о монетах Кашкадарьи. – Т., 1977. – С. 135–137.
37. Procopius. History of the Wars. Vol. I. – London, 1914. – P. 12–15.
38. Гафуров Б. Г. Таджики. – Душанбе, 1972. – С. 206.
39. Тревер К. В. Эфталиты в истории Средней Азии. – М.; Л., 1950. – С. 126; Moravcsik G. Byzantinoturcica. Bd. II. – Berlin, 1983. – S. 127.
40. Droin N. Théophylacte Simocatta. – Paris, 1895. – P. 74; Moravcsik G. Byzantinoturcica. Bd. II. – Berlin, 1983. – S. 54.

41. Zachariah of Mitylene. Chronicle. – London, 1899. – P. 328.
42. Enoki K. The Hephthalites in Chinese Sources. – Kyoto, 1955. – P. 233.
43. Enoki K. The Hephthalites in Chinese Sources. – Kyoto, 1959. – P. 6–7.
44. Herrmann A. Die alten Berichte über die Hephthaliten. – Leipzig, 1925. – P. 569; Miller K. Accounts of the Western Regions in the History of the Northern Chou Dynasty. – Berkeley, 1959. – P. 11–12.
45. Kuwayama Sh. Chinese Sources on the Hephthalites. – Kyoto, 1989. – P. 97–99; Kuwayama Sh. Across the Hindukush of the First Millennium. – Kyoto, 2002. – P. 113–116.
46. Errington E., Curtis V. S. From Persepolis to the Punjab. – London, 2007. – P. 96, 134.
47. Grenet F. Regional Interaction in Central Asia. – Oxford, 2005. – P. 129–130.
48. Sims-Williams N. Bactrian Documents from Northern Afghanistan. Vol. I. – Oxford, 2000. – P. 50–57, 162–163; Sims-Williams N. Bactrian Documents and the Hephthalites. – 2007. – P. 122–127.
49. Melzer G. A Copper Scroll Inscription from the Time of the Alchons. – Wien, 2006. – P. 251–274.